

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING PROFESSIONAL KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV TRENINGLARNING AHAMIYATI

Suyunova Sevara Saloxiddin qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

Email: saloxiddinovnasevara6@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada interaktiv metodlar, trening mashqlari va pedagogik muloqot orqali talabalarning nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetentlik, kommunikativ trening, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari, professional rivojlanish, interaktiv metodlar, pedagogik muloqot.

ЗНАЧЕНИЕ КОММУНИКАТИВНОГО ТРЕНИНГА В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОММУНИКАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье освещены вопросы развития речевой активности, самостоятельного мышления и профессиональной компетентности студентов посредством интерактивных методов, тренинговых упражнений и педагогического общения.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, коммуникативные тренинги, будущие учителя английского языка, профессиональная подготовка, интерактивные методы, педагогическое общение.

THE IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE TRAINING IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE ABILITIES OF FUTURE ENGLISH TEACHERS

Abstract. This article explores the development of students' speech activity, independent thinking, and professional competence through interactive methods, training exercises, and pedagogical communication.

Keywords: communicative competence, communicative training, future English teachers, professional development, interactive methods, pedagogical communication.

Bugungi kunda pedagogik faoliyatni kommunikativ usullarisiz tasavvur qilish qiyin, chunki har qanday fan asoslarini o‘rganishdan kuzatiladigan yagona maqsad yetuk mutaxassisni voyaga yetkazishdir. Shu nuqtai nazardan olganda muloqot, so‘zlashuvchilar tomonidan turli-tuman gaplar orqali amalga oshiriladi. Bunday holatlarda o‘qituvchi o‘quvchilarning fikrlarini noto‘g‘ri deb topmasligi lozim, aksincha, iloji boricha talabalarga yordam berishi, rag‘batlantirishi, noto‘g‘ri fikr

aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilish, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o'zi tahlil qilib berishi lozim.

Ta'lim tizimiga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilar uchun AQSH va Buyuk Britaniya pedagog-o'qituvchilari tajribasiga tayangan holda, quyidagi kommunikativ-trening mashqlari mavjud [1]:

“Ijodiy muammoni hal qilish” – ushbu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qiladi va talabalardan uni qanday tugatish to'g'risida qaror qabul qilish so'raladi;

“Tezkor javob”lar dars samaradorligini oshirishga yordam beradi;

“Chigil yozdi” mashqlari o'quvchilarni darsga jalb qilish uchun turli xil sinf o'yinlaridan foydalanadi;

“Pantomima” – bu usul talaba dars bajarishdan yoki juda murakkab mavzularni tushuntirishni talab qiladigan mashqlarni yozishdan charchaganida ishlatilishi mumkin;

“Zanjir tarixi” usuli talabalar gapirishini taxmin qiladi, xotirani yaxshilash va mustahkamlashga hissa qo'shadi;

“Rolli o'yinlar”. Bu usulni bajaruvchi barcha dars turlarida qo'llash mumkin. Kursda tarjimon, yozuvchi va shoir kabi mutaxassislar ishtirok etishlari va talabalar bilan muloqot qilishlari mumkin;

“Olimlar yig'ini”. Bu usulda siz V. Shekspir, A. Navoiy, R. Berns kabi shoir va yozuvchilarni “taklif” qilishingiz mumkin. Bunday lahzalarda sinfdan aytgan hikmatli so'zlaridan foydalanish yigit-qizlarning komil insonlar bo'lib yetishishiga yordam beradi;

“Rasmlar gapirganda” usuli qulayroq, ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa tematik rasmlardan foydalanishni talab qiladi;

“Viktorina kartalari” talabalar soniga qarab tarqatiladi va barcha o'quvchilarga bir vaqtning o'zida darslarga borishga imkon beradi, bu esa vaqtni tejaydi. “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative problem solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, hukmiga havola qilinadi;

“Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

“Chigil yozdi” (Warm-up exercises) talabalarni darsga qiziqtirish uchun auditoriyada har xil o'yinlardan foydalanish” [2];

“Pantomima” (Pantomime) – bu usuldan talaba darsni bajarishdan yoki juda qiyin mavzularni tushuntirish kerak bo'lgan mashqlar yozishdan charchaganida qo'llanilishi mumkin;

“Hikoya zanjiri” (A chain story) usuli talabalarining og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi;

“Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin. Hunarga o'rgatish uchun “Interpreter”, “Translyator”, “Writer”,

“Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib talabalar bilan suhbatlashishlari mumkin;

“Allomalar yig‘ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so‘zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo‘lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

“Rasmlar so‘zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatishda, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

1-jadval

Kommunikativ malakalarni rivojlantirishga qaratilgan trening dasturi:

№	Mashg‘ulotning nomi	Mashg‘ulotga ajratilgan vaqt	Kutilayotgan natijalar
1	Guruh normalarini ishlab chiqish	5 daqiqa	Guruh normalarini ishlab chiqish treningni tartibli va samarali o‘tishga yordam beradi.
2	Ishtirokchilar kutuvlarini aniqlash	3 daqiqa	Trenerga mashg‘ulotni kechishini oldindan prognozlash va zarur holda korreksiyalashga yordam beradi.
3	Salomlashish mashqi “Hissiyotli salomlashish”	10 daqiqa	Guruh ishtirokchilari bilan tanishish va ularni trening muhitiga olib kirishga yordam beradi.
4	Enerjayzer “Atom-molekula” o‘yini	10 daqiqa	Ishtirokchilarning ishchanlik samaradorligini oshiradi va guruh a‘zolari o‘rtasidagi taranglikni yumshatadi.
5	“Maktabdagi bir kun” o‘yini	15 daqiqa	Muammoli vaziyatlarda mo‘ljallanish va muammo yechimini topish ko‘nikmasini shakllantiradi.
6	“Chigalni yech” o‘yini	15 daqiqa	Hamkorlikdagi faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishni o‘rgatadi.

“Kviz kartochkalari” (Quiz cards) talabalarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi” [3].

Bahslar: o‘quv guruhlarini ikki guruhga bo‘lgan holda biror mavzu bo‘yicha o‘zaro bahs-fikr almashinuvi tarzida o‘tkaziladi.

Muzyorar: ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar orasida to‘siqni yo‘qotishga qaratilgan.

O‘yinlar: ishbilarmonlik yoki rolly o‘yinlar. Faqat bu o‘yinda matnli materiallar o‘rniga talabalar tomonidan rolly o‘ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

Kitob bilan ishlash: ushbu usul ta'lim oluvchilarning o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishini, o'z-o'zini tekshiruv malakalarini, berilgan matnni mazmunini ongli ravishda bayon eta bilishiga qaratilgan usullar.

Induvidial (amaliy usul). Ta'lim oluvchilar faoliyatida olgan bilimlarini amaliy vazifani yechishiga qaratadilar.[4]

Suhbatlashish: bu o'qitish va o'qishning dialog, savol-javob usullaridir. Suhbat induvidial va guruh shaklida o'tkazilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Moeller M., Moeller V. Socratic Seminars and Literature Circles.– New York, 2001. – P. 208.
2. The Holmes Partnership Trilogy: Tomorrow's Teachers, Tomorrow's Schools, Tomorrow's Schools of Education. (2007). New York, N.Y.: Peter Lang.
3. What teachers need to know about teaching methods. Peter West Wood, Camberwell, Vic. : ACER Press, 2008.-p.16-36.
4. Jalolov J. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, "O'qituvchi" 2003.